



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2023- yil “29” sentabr

BUYRUQ № 66

Toshkent sh.

**“Foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarning
tanlama kuzatuvlarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi”ni tasdiqlash haqida**

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4796-son qarori ijrosini ta‘minlash, rasmiy statistika sohasida qurilish ishlari umumiy hajmini shakllantirish bo‘yicha uslubiyatni yanada takomillashtirish maqsadida, buyuraman:

1. Yangi tahrirdagi “Foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarning tanlama kuzatuvlarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Davlat statistika qo‘mitasining 2014- yil 9- iyundagi “Foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarning tanlama kuzatuvlarini tashkil etish va o‘tkazish tartibini tasdiqlash to‘g‘risidagi” 7- son qarori hamda mazkur qarorga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi 2020- yil 30- oktabrdagi 36- son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

3. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Direktor

B. Begalov

**Foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarning
tanlama kuzatuvlarini tashkil etish va o'tkazish
TARTIBI**

Ushbu Foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarning tanlama kuzatuvlarini tashkil etish va o'tkazish Tartibi (keyingi o'rinlarda – Tartib) tanlama statistik kuzatuvlarni tashkil etish va o'tkazish bosqichlariga mos keluvchi ketma-ketlikda bayon etilgan va statistika organlarining hisobot davrida foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylar qiymatini hisoblash imkonini beruvchi haqqoniy statistika ma'lumotlarini olishlari uchun mo'ljallangan.

Kuzatuvlarni o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni hamda Statistika dasturi asos hisoblanadi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylar va hovlidagi xo'jalik qurilishlari tanlama statistika kuzatuvlarining asosiy maqsadi, ishga tushirilgan yakka tartibdagi uy-joylar umumiy qurilish maydonining 1 kvadrat metri uchun sarflangan moddiy va mehnat resurslari miqdori haqida ma'lumotlar yig'ish va ular asosida yakka tartibdagi uy-joylar qurilishi bo'yicha investitsiyalar va qurilish ishlari hajmlarini baholash uchun hisobot davrida ishga tushirilgan yakka tartibdagi uy-joylar umumiy qurilish maydonining 1 kvadrat metri qiymatini hisoblashdan iborat.

2. Mazkur Tartibda quyidagi asosiy tushuncha va ta'riflar qo'llaniladi:

supervayzer – Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri statistika boshqarmalaridan belgilangan tegishli tuman va shaharlarida o'tkaziladigan tanlanma kuzatuvlarni o'tkazish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirib boruvchi vakil;

intervyuyer – tanlanma kuzatuvga tushgan obyektga borgan holda bevosita so'rovnomani o'tkazish uchun tuman va shahar statistika bo'limidan belgilangan vakil;

yakka tartibdagi uy-joylar – bir yer uchastkasida joylashgan, doimiy yashash, dam olish va shaxsiy xo'jalikni yuritishga mo'ljallangan yordavchi-xo'jalik imoratlari va hovlidagi inshootlar tegishli bo'lgan bir yoki bir necha turar-joy imorati;

respondent – tanlanma kuzatuvga tushgan uy-joyning egasi hisoblangan oila boshlig'i yoki qurilish xarajatlari to'g'risida so'rov o'tkazish uchun yetarli ma'lumotga ega bo'lgan shu uy xo'jaligining vakolatli a'zosi.

2-bob. Kuzatuv instrumentariysi

3. Yakka tartibdagi uy-joylarning kuzatuvlari jarayonida quyidagi hujjatlar va so'rovnomalardan foydalaniladi:

a) barcha foydalanishga topshirilgan uy-joylarning devor materiallari turlari bo'yicha ro'yxati hamda kuzatuv uchun tanlab olingan uy-joylar ro'yxati;

b) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylar tanlama kuzatuvining maxsus so'rovnomasi.

3-bob. Tanlab olish tartibi va bosqichlari

4. Kuzatuvlarni tashkil etish va o'tkazish respublika va hududlar miqyosida amalga oshiriladi.

5. Kuzatuvlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) kuzatilishi lozim bo'lgan yakka tartibdagi uy-joylarning tanlanma to'plamini shakllantirish;

b) axborotlarni yig'ish va ularni birlamchi qayta ishlash;

v) kuzatuvlar yakuniy natijalarini shakllantirish.

6. Xo'jalik usuli bilan (qurilish pudrat tashkilotlarini jalb etmagan holda) qurilgan va hisobot davrida foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylar kuzatuv obyektlari hisoblanadi.

Quyidagilar kuzatuv obyektlariga kiritilmaydi:

qurilish jarayoni boshlanayotgan (davom etayotgan) yakka tartibdagi uy-joylar;

qurilish-pudrat tashkilotlari tomonidan namunaviy loyihalar bo'yicha qurilgan yakka tartibdagi uy-joylar.

7. Kuzatuv respublikaning barcha hududlarida: Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida o'tkaziladi. Tanlash amalga oshirilayotganda, kuzatuv natijasida olinadigan ma'lumotlarning zaruriy haqqoniylik darajasi hisobga olinadi.

8. Yakka tartibdagi uy-joylarni tanlab olish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (keyingi o'rinlarda - Statistika agentligi) tomonidan, har bir hudud bo'yicha, hududiy statistika boshqarmasining mazkur Tartibning 1-ilovasiga muvofiq taqdim etgan foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylar ro'yxatidan foydalangan holda amalga oshiriladi.

9. Birinchi bosqichda foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylar ro'yxati devor materiallari turi bo'yicha 6 ta guruhga bo'linadi: 1 – tosh (pishgan g'isht, shlakoblok va boshqa tosh materiallar, 2 – xom g'isht, 3 – penoblok, 4 – blok, 5 – monolit, 6 – boshqa devorbop materiallar (sinch, paxsa va boshqalar).

Ikkinchi bosqichda – har bir guruhdan oddiy tasodifiy usul bilan uy-joylar tanlab olinadi.

10. Tanlanma to'plamga kiritiladigan uylarning umumiy soni, har chorakda Statistika agentligi tomonidan, har bir hududdagi shahar va qishloq joylarida foydalanishga topshirilgan uylarning soni va umumiy qurilish maydoni to'g'risidagi ma'lumotlar asosida aniqlanadi.

4-bob. Kuzatuvlarni o'tkazish bo'yicha ishlarni tashkil etish

11. Kuzatuvlar maxsus so'rovnoma asosida, Statistika agentligi tomonidan tasdiqlangan jadvalda belgilangan muddatlarda o'tkaziladi.

12. Kuzatuvlarni o'tkazish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish va monitoringini olib borish, uning natijalarini tahlil qilish Statistika agentligining Investitsiyalar va qurilish statistikasi boshqarmasi va Uy-joy qurilishi va pudratchi qurilish tashkilotlari faoliyatini statistik kuzatuvlari bo'limi tomonidan amalga oshiriladi.

13. Tayyorgarlik tadbirlarini so'zsiz amalga oshirish, belgilangan muddatlarda kuzatuvlarni o'tkazish monitoringi, yakka tartibdagi uy-joylar umumiy qurilish maydonining 1 kvadrat metr uchun qiymatini shakllantirish Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshqarmalari tomonidan kuzatuvni sifatli o'tkazish uchun javobgar xodimlarni (supervayzerlarni) tayinlash yo'li bilan ta'minlanadi.

14. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshqarmalari, tasdiqlangan jadvalda belgilangan muddatlarda, Kadastr palatalarining tuman va shahar bo'limlariga, hisobot davrida ishga tushirilgan yakka tartibdagi uy-joylar bo'yicha ma'lumotlarni mazkur tartibning 1-ilovasiga asosan taqdim etishlari to'g'risida yozma so'rovnoma jo'natadilar.

15. Hududiy supervayzerlar, kuzatuv kunlarida:

intervyuyerlardan birlamchi elektron ma'lumotlarni qabul qiladilar;

so'rovnoma ma'lumotlarining to'liqligi va to'g'ri to'ldirilganligini nazorat qiladilar, so'rovnoma savollariga javoblarni mantiqiy nazoratdan o'tkazadilar;

tanlama kuzatuv jarayonida yuzaga keladigan muammoli savollarni oldini olish bo'yicha tezkor choralarni ko'radilar va zarur hollarda, o'zlari ham kuzatuvda ishtirok etadilar;

intervyuyerlar ishlarini umumiy muvofiqlashtirish va nazorat qilish hamda ular orasida ishlarni taqsimlashni amalga oshiradilar;

ro'yxatga asosan uy-joylarni to'liq qamrab olinishini nazorat qiladilar.

16. Kuzatuvning tayyorgarlik tadbirlarini sifatli amalga oshirish, yakka tartibdagi uy-joylarni aylanib chiqish, uy egalari bilan so'rov o'tkazish va kuzatuv so'rovnomalarini to'ldirish, tuman yoki shahar statistika bo'limlari xodimlari orasidan tayinlangan intervyuyerlar tomonidan amalga oshiriladi.

17. So'rov o'tkazishga, shuningdek, uy-joy va hovlidagi qurilishlar uchun foydalanilgan moddiy va mehnat resurslari haqidagi ma'lumotlarni so'rovnomada to'g'ri aks ettirilishi bo'yicha maslahatlar berish uchun Kadastr palatalarining hududiy organlari mutaxassisleri jalb qilinishi mumkin.

5-bob. Intervyuyerning majburiyatlari

18. Uy-joylar kuzatuvini boshlashdan avval, intervyuyer mazkur Tartib, so'rovnoma va uni to'ldirish bo'yicha tushuntirishlar bilan tanishib chiqishi lozim.

19. Kuzatuv jarayonida intervyuyer quyidagilarga amal qilishi lozim:

a) uy egalariga hurmat bilan murojaat qilish, ularga nisbatan xushmuomala bo'lish va so'rov ixtiyoriy bo'lishini ta'minlash, uy egalaridan olingan ma'lumotlarni sir saqlanishini ta'minlash;

b) uy egalariga kuzatuvning maqsadi va vazifalarini aniq bayon qilish, maxsus so'rovnomaga asosan xolisona va beg'araz so'rov o'tkazish;

v) so'rov o'tkazilayotgan shaxsning ruxsatisiz to'ldirilgan so'rovnomaga tuzatish va o'zgartirishlar kiritmaslik, so'rovnomani qalbakilashtirishga yo'l qo'ymaslik;

g) intervyuni tugatishdan avval, to'ldirilgan so'rovnomalarning to'liqligini va sifatini tekshirish.

20. Kuzatuv kunlari intervyuyerlar har kuni quyidagilarni amalga oshiradilar:

elektron axborotni birlamchi nazorat va tahlil qilish;

hududiy supervayzerlar bilan birgalikda ma'lumotlarni tahlil qilish.

21. Olingan ma'lumotlar devor materiallari turlari kesimida quyidagi ko'rsatkichlarni shakllantirishda qo'llaniladi:

a) yakka tartibdagi uy-joyning umumiy qurilish maydoni, kvadrat metr;

b) uy qurilishida sarflangan asosiy moddiy resurslar miqdori (qurilish materiallari turlari bo'yicha);

v) uy qurilishida sarflangan mehnat resurslari miqdori (ish turlari bo'yicha);

g) hovlidagi xo'jalik qurilishlarining mavjudligi.

6-bob. So'rovnomani to'ldirish bo'yicha tushuntirishlar

22. Intervyuyer kuzatuv o'tkazilayotgan uyga tashrif buyurganda, savollarga javob beruvchi respondentni aniqlaydi (u oila boshlig'i yoki uy xo'jaligining vakolatli a'zosi bo'lishi mumkin) va unga mazkur kuzatuvning maqsadlari, vazifalari va ushbu uy tanlama kuzatuv rejasiga tushganligi haqida axborot beradi.


23. Respondentning kuzatuvda ishtirok etishga roziligini olgandan so'ng, intervyuyer so'rovni o'tkazishga kirishadi.

24. So'rovnomaning alohida bandida tuman (shahar) bo'yicha kuzatilayotgan davrda (kuzatuv o'tkazilayotgan sanagacha) foydalanishga topshirilgan uy-joylarning umumiy maydonini devor materialining asosiy turi bo'yicha ajratilgan holda ko'rsatiladi: 1-ustunda jami ishga tushirilgan kvadrat metr, 2-ustunda tosh (pishgan g'isht, beton va temir beton, shlakoblok va boshqa tosh materiallaridan qurilgan uylarning kvadrat metri, 3-ustunda xom g'ishtdan, 4-ustunda penoblokdan, 5 – ustunda blokdan, 6 – ustunda monolitdan va 7 – ustunda boshqa

devorbop materiallardan: sinch, paxsa va boshqa devorbop materiallardan qurilgan uylarning kvadrat metri.

25. “Kuzatilayotgan uy-joylar kodlari” ustunida uch belgidan iborat bo‘lgan holatni qayd etish shakli qabul qilingan.

Kod tarkibi quyidagi ko‘rinishga ega:



Kodni shakllantirish namunalari:

1.07 kodi quyidagilarni anglatadi:

1.00 Asosan tosh, pishgan g‘isht, beton va temir beton, shlakoblok va boshqa toshli materiallardan qurilgan guruhga tegishli uy-joylar;

1.07 Asosan tosh, pishgan g‘isht, beton va temir beton, shlakoblok va boshqa toshli materiallardan qurilgan guruhga tegishli 7-tartib raqamli uy-joy.

2.03 kodi quyidagilarni anglatadi:

2.00 Asosan xom g‘ishtdan qurilgan guruhga tegishli uy-joylar;

2.03 Asosan xom g‘ishtdan qurilgan guruhga tegishli 3-tartib raqamli uy-joy.

3.04 kodi quyidagilarni anglatadi:

3.00 Asosan penoblokdan qurilgan guruhga tegishli uy-joylar;

3.04 Asosan penoblokdan qurilgan guruhga tegishli 4-tartib raqamli uy-joy.

4.05 kodi quyidagilarni anglatadi:

4.00 Asosan blokdan qurilgan guruhga tegishli uy-joylar;

4.05 Asosan blokdan qurilgan guruhga tegishli 5-tartib raqamli uy-joy.

5.06 kodi quyidagilarni anglatadi:

5.00 Asosan monolitdan qurilgan guruhga tegishli uy-joylar;

5.06 Asosan monolitdan qurilgan guruhga tegishli 6-tartib raqamli uy-joy.

6.07 kodi quyidagilarni anglatadi:

6.00 Asosan boshqa devor materiallaridan (paxsa, sinch) qurilgan guruhga tegishli uy-joylar;

6.07 Asosan boshqa devor materiallaridan (paxsa, sinch) qurilgan guruhga tegishli 7-tartib raqamli uy-joy.

26. Ishga tushirilgan uy-joyning umumiy qurilish maydoni (kvadrat metri) respondentning so‘zlaridan yoki uyning rejasi, texnik pasporti ma’lumotlari asosida qo‘yiladi.

27. Alohida bandlarda uyning qurilishida foydalanilgan mehnat resurslari: poydevor qo'yish, devor ko'tarish, tom yopish ishlari va kommunikatsiyalar o'tkazish bo'yicha ishlar yollanma ishchilar soni va ularning ishlagan kunlari ko'rinishida ko'rsatiladi.

28. Alohida bandda ushbu uy xo'jaligida mavjud hovli qurilishlari: omborxona, uy hayvonlari va parrandalarni saqlash uchun joylar, garaj, tandirxona, yerto'la, issiqxonalar, qozonxona, hovuz (basseyn)lar va boshqa funksional binolar haqidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi. Bunda, ustunlarda belgilar (1-mavjud, 2-mavjud emas) qo'yiladi.

29. Asosiy qurilish materiallari xarajatlari bo'yicha bandlar ma'lumotlarini to'ldirayotganda, har bir satrda uy-joy va hovlidagi xo'jalik qurilishida foydalanilgan qurilish materiallari (to'siqlar qurilishi, yo'laklarni betonlash va boshqalarni qo'shgan holda) miqdori qo'yiladi. Bunda, so'rovnomada ko'rsatilgan har bir material o'lchov birligiga e'tibor qaratish zarur. Biron bir material mavjud bo'lmagan holda, bu qatorga nol qo'yish kerak bo'ladi.

Tuproq xarajatlari bo'yicha kichik band ma'lumotlarini to'ldirayotganda, xom g'isht, paxsa tayyorlash va boshqa ishlar uchun ketgan tuproq sarfini ko'rsatish lozim.

Xom g'isht xarajatlari bo'yicha kichik bandni to'ldirayotganda, xarid qilingan xom g'ishtlar miqdori qo'yiladi. Uy xo'jaligida tayyorlangan xom g'isht, tuproq xarajatlari sifatida kichik bandda aks ettiriladi.

7-bob. Kuzatuv natijalarini tayyorlash va umumlashtirish

30. Hududiy boshqarmalarning Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limlari quyidagilarni amalga oshiradilar:

elektron axborotlarni birlamchi nazorat qilish, umumlashtirish va tahlil qilish;

umumlashtirilgan elektron axborotlarni Statistika agentligiga taqdim etish;

shahar va tumanlar kesimida, yakka tartibda uy-joy qurilishi bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar va qurilish ishlari hajmini statistik baholash.

31. Statistika agentligining Investitsiyalar va qurilish statistikasi boshqarmasi va Uy-joy qurilishi va pudratchi qurilish tashkilotlari faoliyatini statistik kuzatuvlari bo'limi quyidagilarni ta'minlaydilar:

tanlama kuzatuvlar bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar monitoringi;

tanlama kuzatuvlar natijalari tahlili;

kuzatuvlar natijalari bo'yicha tahliliy jadvallar tayyorlash.

Foydalanishga topshirilgan
yakka tartibdagi uy-joylarning
tanlama kuzatuvlarini tashkil etish
va o'tkazish tartibiga
ILOVA

Foydalanishga topshirilgan uy-joylarning ro'yxati

_____ tumani (shahri) bo'yicha

202__ yil _____ chorak uchun

No	Uy-joy manzili, uy egasining F.I.O.	Ishga tushirildi, umumiy qurilish maydon kv.m.	Devorbop materiallarning asosiy turlari (pishgan g'isht, shlakoblok va boshqa tosh materiallari, xom g'isht, penoblok, blok, monolit, paxsa, sinch)

Familiyasi va telefon raqami:

Lavozimi: _____

Imzo: _____

To'ldirilgan sana, kun, oy: